

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

5/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/5 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Ulashova Sevinch Ulash qizi</i> CHIG'ATOY ULUSI BOSHQARUVI TARIXIDAN	8-13
<i>Gulmatov Umarali Xabibulla o'g'li</i> "XITOIY-O'ZBEKISTON-QIRG'IZISTON" TRANSPORT YO'LAGI TASHKIL ETILISHIDA O'ZBEKISTON ISHTIROKINING TARIXIY AHAMIYATI	14-18
<i>Dexkanov Narimon Burxonjonovich</i> ISMOIL SOMONIYNING BOSHQARUV TIZIMI VA QO'SHIN ISLOHOTI	19-22
<i>Saparbayeva Aziza Asror qizi</i> SURXONDARYO HUDUDINING BRONZA DAVRI MANZILGOHLARIDAN ANIQLANGAN ZARGARLIK BUYUMLARI TIPOLOGIYASI	23-28

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Muradullayeva Nafisa Dilmurad qizi</i> XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYALARI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	29-34
<i>Utkirov Anvar Utkirovich</i> KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIVERGENTSIYANI TIZIMLI TASHKIL ETISH TENDENSIYALARI	35-44

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Madraximov Jahongir Botirjon o'g'li</i> GLOBALLASHUV JARAYONLARINING YOSHLAR MA'NAVIY HAYOTIGA TA'SIRINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	45-52
<i>Rahmonova Feruza Bahromjon qizi</i> XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH – TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKLARDAN ASRASHNING SAMARALI YO'LI SIFATIDA	53-58
<i>Aripova Zulfiyaxon Salijanovna</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FALSAFIY FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI	59-64

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i> SHE'RIYATDA OBRAZ MUAMMOSI	65-73
<i>Hikmatova Nigina Akmalovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA AGORONIMLARNING ONOMASTIK KATEGORIYA SIFATIDAGI MILLIY-LISONIY BELGILARI	74-79
<i>Sultanova Xurshida Uktamjanovna</i> PUBLITSISTIK USLUB VA UNING TADQIQI (XURSHID DAVRON IJODI MISOLIDA)	80-86

Asqarova Dilbarxon Asqarjon qizi
XRONOLOGIYA VA IJOD: INGLIZ VA O'ZBEK MA'RIFIY DRAMALARINI
QIYOSIY O'RGANISH 87-91

Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna, Mahmudova Nargiza Alimovna
J. FAULZNING "KOLLEKSIONER" ROMANIDA RIVOYAT USULLARINING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI 92-96

Miraxmedova Zilola Erkinovna
EVFEMIYA TIL FENOMENI. EVFEMIZMNI O'RGANISH TARIXI 97-101

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Абдуолимов Уринбой Худобердиевич
ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ ВА УНИ ТАШКИЛ
ЭТИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ 102-110

Алишоев Собир Турсунбоевич
СУД ҲУҚМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИДА СУД МАЖЛИСИ БАЁННОМАСИНИНГ
ПРОЦЕССУАЛ ВА ИСБОТЛОВЧИ ФУНКЦИЯЛАРИ 111-119

Muhammadiyah Bahromjon Qodirjon o'g'li
OTALIKNI FAKTINI BELGILASH ISHI (BOTIR QODIROV VA JO'RAYEVLAR
OILASI MISOLIDA) 120-124

Maxmudova Hurmatxon Muxtorovna
KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI TAHLILI: QONUNCHILIK VA
AMALIYOT 125-135

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rashidova Oynisa Xusniddin qizi
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL
ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH 136-140

Bakiyeva Xayotxon Abduganiyevna, Ergasheva Roziya Bahodir qizi
DARSLARDA ZAMONAVIY TA'LIM USULLARIDAN FOYDALANISH 141-146

Ганпаров Захид Ганпарович
ИССЛЕДОВАНИЕ НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ СИНХРОНИЗАЦИИ ДВИЖЕНИЙ В СИНХРОННОМ
ПЛАВАНИИ 147-153

Qurbonova Dilafruz Toshturdiyevna
TALABA-QIZLARGA TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSI ASOSIDA MA'NAVIY-AXLOQIY
QADRIYATLARNI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULI 154-159

Received: 10 July 2024
Accepted: 15 July 2024
Published: 25 July 2024

Article / Original Paper

PUBLICISTIC METHOD AND ITS RESEARCH (IN THE EXAMPLE OF KHURSHID DAVRON'S WORK)

Sultanova Khurshida Uktamjanovna

NUUz Uzbek philology, master's student of the first stage
sultanovakhurshida323@gmail.com

Abstract. This article presents the journalistic style and its characteristics, the conclusions of scientists who have studied this style, and their opinions on theoretical issues of style. This article talks about the concept of the journalistic genre and its scientific and theoretical foundations. The current literature on the topic of the article was also studied and the results of the analysis were presented. The article analyzes the writer's creativity in the field of journalism. As a result, based on examples, the activities of Khurshid Davron in journalism were analyzed in analytical articles, essays and related genres.

Keywords: journalism, scientific journalism, literary and artistic journalism, journalistic style, letter, article, essay, art.

PUBLITSISTIK USLUB VA UNING TADQIQI (XURSHID DAVRON IJODI MISOLIDA)

Sultanova Xurshida Uktamjanovna

O'zMU O'zbek filologiyasi, I bosqich magistratura talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada publitsistik uslub va uning o'ziga xos xususiyatlari, ushbu uslubni tadqiq qilgan olimlarning xulosalari, uslubning nazariy masalalari yuzasidan bildirgan fikrlari keltirilgan, publitsistik janr tushunchasi va uning ilmiy nazariy asoslari haqida so'z boradi. Shuningdek, maqola mavzusiga doir tegishli adabiyotlar o'rganilib tahlil natijalari keltiriladi, yozuvchining publitsistika yo'nalishida yaratgan asarlari tahlil qilingan. Natijada Xurshid Davron publitsistikaning tahliliiy maqola, esse va unga yondosh badiia janrlarida ijod qilgani misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: publitsistika, ilmiy publitsistika, adabiy-badiiy publitsistika, publitsistik uslub, maktub, maqola, esse, badiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI5Y2024N12>

Kirish. Ma'lumki, publitsistik uslub o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Vaqtli matbuot, ijtimoiy-siyosiy adabiyot hamda davrning dolzarb masalalarini ommabop tarzda yoritadigan maqolalar ushbu uslubda yoziladi. Omma bilan doimiy muloqot olib borish va ma'lumotlarni tezkor yetkazish publitsistik uslub orqali amalga oshiriladi. Publitsistik uslubdagi nutq informativ boyligi, aniqligi va ta'sirchanligi bilan boshqa uslubdagi matndan ajralib turadi. Bilamizki, publitsistik uslub omma ongiga ta'sir etishda, uni ma'lum bir maqsadga yo'naltirishda birlamchi vosita hisoblanadi. Jahon tilshunosligida bugunga qadar badiiy, ilmiy hamda publitsistik matnlar, ularning mazmuniiy va leksik-semantik tuzilishi bir

qator tadqiqotlarda o'rganilgan. Bu boradagi izlanishlarning natijasida publitsistik janrning leksik xususiyatlari, janr ko'rinishlari va kommunikativ imkoniyatlari doirasida bir qator qo'llanma, lug'at va darsliklar tayyorlanmoqda. Publitsistik janrga oid matnlarni leksik jihatdan tahlil qilish, lingvistik xususiyatlarini taqqoslash bugungi kunning muhim masalalari sirasiga kiritilmoqda.

Shuningdek, har bir ijodkorning so'z qo'llash mahoratini o'rganish, tasniflash, mohir publitsistlarning leksik fondini o'rganish orqali davr adabiy tilini tahlil qilish alohida ahamiyatga ega. Shu bois ushbu sohada o'z yechimini kutayotgan muammolar bir talay. Maqolamizda publitsistik uslub va uning tadqiqi hamda adabiyotimizning zabardast ijodkorlaridan biri Xurshid Davron ijodining lingvistik o'rganilishi, ijodkor publitsistik maqolalari, esse va suhbatlari misolida publitsistik uslubda mavzu rang-barangligining ahamiyati haqida to'xtalishni maqsad qildik.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Publitsistikaning obyekti real ijtimoiy voqelikdir. U obyektiv voqelikning barcha tomonlarini yoritib boradi. Publitsist hayot voqealarini ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazardan o'rganib, tahlil qiladi. Publitsistik asarning mazmuni-muallif tomonidan aks ettirilgan hayotiy hodisa va dalillarga nisbatan uning ijtimoiy, siyosiy va nazariy qarashlaridir[7,12].

Publitsistikashunos Ochil Tog'ayev "O'zbek badiiy publitsistikasi" nomli monografiyasida shunday yozadi: "Publitsistika zamona tarixidir. Zamonning ko'z-qulog'i, ovozi, qalb-vijdoni hisoblangan yozuvchi-publitsist davr talabiga hammadan ko'ra ko'proq javob bera oladigan eng zarur janrga hamma vaqt murojaat qilib keladi. Hozirjavoblik, davrga hamohanglik publitsistikaning muhim xususiyatlaridandir. Publitsistika keng ma'noda ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdagi asarlarni o'z ichiga oladi"[12,27]. Publitsistika san'at, adabiyot asarlari tarkibiga tobora ko'proq kirib bormoqda. Keyingi davrda publitsistik roman, pyesa, kino asarlari paydo bo'lmoqda.

Davriy matbuotga oid asardagi asosiy g'oya va mazmuni ifoda qilishda muallif shaxsiy munosabati masalasi alohida ahamiyat kasb etadi, u hayotdagi ijtimoiy-siyosiy voqelikka, muammo sifatida ko'tarilayotgan masalaga o'z faolligi bilan munosabat ifodalaydi. Uning voqelikka bo'lgan munosabati fikrni ifodalashdagi dalillarni keltirishda ham, ularni o'z dunyoqarashi va estetik tamoyillari asosida mantiqiy tahlil qilish, qiyoslashda ham, shuningdek, tilning emotsional-ekspressiv, boshqa turli uslubiy vositalaridan foydalanishida o'zgachalik kasb etadi. Publitsistik asar muallifi hayotiy masalalarni mantiqiy mulohaza, dalil, asoslar bilan tushuntirish, isbotlash bilan birga, o'quvchini bunga ishontirish, uning his-tuyg'ulariga ta'sir etishni ham bosh maqsad qilib qo'yadi va til imkoniyatlaridan shunga mos ravishda foydalanadi[6,26].

Publitsistik uslubning yozma turiga mansub asarlar qatoriga davrning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag'ishlangan publitsistik maqola, felyeton, pamflet, murojaatnoma, ocherk, esse kabi bir qator adabiy janrlarni kiritishimiz mumkin. Adabiy tilning mazkur uslubida yaratiladigan asarlarning vujudga kelish omillari muayyan davrda ijtimoiy jamiyatda xalq madaniyati va ma'naviyatining yuksalishi bilan asoslanadi, rivojlanadi va takomillashadi. Shuning uchun bu janr uzoq tarixga ega bo'lib, adabiy til taraqqiyotining barcha davrlarida shoir va yozuvchilar, ziyolilar mazkur janrga qayta-qayta murojaat qilganlar.

Muhokama va natijalar. Bugun maqolamizda o'zbek adabiyotida rang-barang she'riyati, dramatik asarlari, ma'rifiy maqolalari, publitsistik asarlari bilan o'z ovozigacha ega

ijodkor Xurshid Davron ijodining lingvistik o'rganilishi hamda publitsistikasi to'g'risida fikr yuritishni maqsad qildik.

Publitsistik uslub va uning tadqiqi yuzasidan jahon tilshunosligida, shu bilan bir qatorda rus tilshunosligida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlarda publitsistik uslub janrlari, tili va uslubining o'ziga xos lisoniy jihatlari, bu uslubga xos bo'lgan leksik-semantik til birliklari to'g'risida asosli fikrlar bildirilgan, nazariy xulosalar chiqarilgan. G.O.Vinokur, V.G.Kostamarov, D.E.Rozental kabi tadqiqotchilarning ishlarini ushbu sohada amalga oshirilgan muhim tadqiqotlar sifatida e'tirof etishimiz mumkin.

O'zbek tilshunosligida esa publitsistik uslubda yaratilgan asarlar tilini ilmiy o'rganishga bag'ishlangan ishlar XX asrning 30-yillaridan boshlab yuzaga keldi. V.Reshetov hamda M.Mirzayevlarning izlanishlarini ushbu sohada qilingan dastlabki tadqiqotlar sifatida tilga olish o'rinli bo'ladi. Vaqtli matbuot tilining muhim xarakterli belgilari A.Shomaqsudov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda namoyon bo'ldi. Bu davrda matbuot nashrlari sarlavhalarining o'ziga xos xususiyatlarini yoritishga bag'ishlangan tadqiqotlar ham yuzaga keldi. A.Shomaqsudov, L.Toshaliyev, P.Rustamov, B.Yo'ldoshev, B.Mirzayevlar gazeta sarlavhalarining vazifasi, uslubiy xususiyatlarini o'rgangan.

B.Turdaliyev XX asrning birinchi choragida nashr etilgan gazeta matnlarining morfologik xususiyatlari yuzasidan tadqiqotlar olib bordi. A.Abdunazarov "Mushtum" jurnali tilining leksik, frazeologik xususiyatlarini nomzodlik ishida keng tarzda yoritib berdi. Publitsistik uslub monografik tadqiqot sifatida M.Rahmonovning "Turkiston viloyatining gazetasi" tilining sintaktik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotida namoyon bo'ldi.

G'.Karimovning "20- 30-yillar o'zbek adabiy tilining rivojlanish masalalari"(ot so'z turkumidagi so'zlar bo'yicha)nomli dissertatsiyasida mazkur davrda Turkistonda nashr etilgan o'zbek tilidagi gazeta va jurnallar tilining asosiy xususiyatlari ham tadqiq obyekt bo'lgan[6,29].

O'zbek publitsistik uslubi birinchi bo'lib tilshunos T.Qurbonov tomonidan monografik planda o'rganildi. Olim publitsistik uslub leksik strukturasi shakllanishida ikkita omil va vositalarni farqlash lozimligini uqtiradi: a) informativ omil; b) ekspressiv omil.

Keyingi davrlarda yozuvchilarning publitsistik uslubga xos asarlarini lingvistik tahlil qilishga bag'ishlangan qator ilmiy ishlar yaratildi. Bunga misol sifatida D.Ne'matovanning "Cho'lpon publitsistik asarlarining lingvistik tahlili" nomli dissertatsiyasini aytishimiz mumkin[8]. D.Rahmatova Behbudiyning tilshunoslikka oid qarashlarini, dramatik, publitsistik janrda yaratgan asarlarining lisoniy xususiyatlarini o'rgangan. Tadqiqotchi Behbudiy publitsistik asarlari til va uslubini tahlil qilar ekan, yozuvchi maqolalarini mavzu jihatdan ikkiga ajratadi: ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy mavzudagi hamda adabiy-tanqidiy mavzudagi maqolalar[10].

Mustaqillik davri o'zbek publitsistikasining til va uslub xususiyatlari haqida H.Hamrayeva "Ozod Sharafiddinov publitsistikasining tili va uslubi" nomli dissertatsiyasida atroflicha so'z yuritadi[13]. Ishda mazkur uslub tadqiqi bilan shug'ullangan olimlarning fikrlari, ular tomonidan uslubning nazariy masalalari keng tarzda o'rganilganligi haqida so'z yuritiladi. Tadqiqotchi tomonidan adib publitsistikasidagi asosiy yo'nalishlar tasnif qilingan, yozuvchi publitsistikasi tiliga xos leksik va frazeologik xususiyatlar ilmiy asoslangan. Xuddi shunday tadqiqotlar sirasiga M.Masharipovning "Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasining leksik xususiyatlari" nomli filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasini kiritishimiz mumkin[6].

Xurshid Davronning tilshunoslik faoliyati va u yaratgan badiiy asarlarning lingvistik xususiyatlari o'zbek tilshunosligida amalga oshirilgan qator ishlarda o'z aksini topgan. Ammo ijodkorning publitsistik asarlari yetarli darajada o'rganilmagan. So'nggi yillarda Xurshid Davron ijodi bir necha dissertatsiyalarda ham tadqiq qilindi. Turkiyaning Ege universiteti doktoranti Cansu Delibalta Gürbulak tomonidan himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasi Xurshid Davron asarlari jahon nigohida ekanligini anglatadi. Olima o'z tadqiqotida Xurshid Davron asarlarini tahlil qilib, uni turk adabiyoti muxlislariga taqdim etdi.

Bu voqea xususida adabiyotshunos olim, doktor Ma'rufjon Yo'ldashev shunday yozadi: Jansu shoir ijodi va hayotini jiddiy o'rgandi, uning publitsistikasidan tortib ijtimoiy tarmoqlardagi yozgan chizganlarigacha kuzatib, tahlil qilib bordi. Shoirning olam va inson haqidagi o'ylari, kundalik mayda masalalar qarshisidagi tutumidan tortib, millatga aloqador katta masalalar qarshisidagi turishigacha tahlil qilib chiqdi. Shoir fenomenini zamonaviy ilmiy tadqiq tamoyillari asosida o'rganib chiqdi. Jansu bu tadqiqoti bilan to'xtab qolmaydi va o'zbek adabiyotini Turkiyada tanitishdan charchamaydi degan umiddaman[3].

Turk doktoranti yozuvchining "Asumanda Güneş Yok İdi" ("Osmonda quyosh yo'q edi") nomli hikoyasini mavzu hamda uslub jihatdan tahlil qilib, tegishli xulosalar chiqaradi. Tadqiqotchi hikoyani bir butunlik sifatida vaqt, makon, uslub va ifoda texnikasiga e'tibor qaratishga harakat qilgan. Yozuvchining tarixga ko'p marotaba murojaat qilganligi, tarixiy shaxslarning hayoti va xarakter-xususiyatlarini yoritishda doimo tarixiy haqiqatlarni boricha berganligi, ba'zi o'rinlarda esa qahramonlarga o'quvchi bilan yonma-yon chekkadan nazar solganligi, ba'zida esa o'z shaxsiy munosabatini ifodalaganligi tadqiqotchida katta qiziqish uyg'otgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

D.Nusratilloeva "Xurshid Davronning individual uslubi va poetik mahorati" nomli dissertatsiyasida[1] ijodkor lirikasida jahon she'riyatining tank, xokku, terset kabi she'r shakllarini sintezlashtirganligi, milliy she'riyatning Cho'lpon, Oybek, Rauf Parfi kabi namoyondalarning musallas she'r kompozitsiyasini tuzishdagi lokanizmi, ramziylikka asoslangan obrazlilik, peyzaj yaratish uslubi, falsafiy tafakkur tarzi an'alariga izdoshligi hamda esse, tarixiy badiya janrlariga mansub asarlarining badiiyati asoslangan.

Xurshid Davron yozuvchi, shoir, dramaturg hamda publitsist sifatida faoliyat yuritgani sir emas. Ijodkor har jabhada faollik ko'rsatib, o'zining nodir asarlari bilan adabiyotimizni boyitdi desak xato bo'lmaydi. Uning jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalarga xolis va adolatli munosabati ifodalangan qator publitsistik asarlari ham talaygina. Xurshid Davron publitsistikaning bir qator janrlarida barakali ijod qilayotgan ziyolilardan biridir. Ijodkorning publitsistik uslubi bir necha maqolalarda tadqiq qilingan. Xususan, yozuvchining publitsistikaning xat janrida yaratilgan asari O.Qurbonova tomonidan tahlil qilingan bo'lib, unda O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron bilan O'zbekiston Qahramoni, munaqqid Ibrohim G'afurov o'rtasidagi ijodiy munosabatlar haqida so'z yuritiladi[9,65-69].

Mustaqillik davri publitsistikasining noyob namunalarini yaratgan Xurshid Davron ijodi zamondosh yozuvchilar tomonidan ham tadqiq etilgan. Bunga misol sifatida Xurshid Do'stmuhammadning "To'g'rilik to'nini kiygill!.." nomli maqolasini keltirishimiz mumkin. Unda muallif Xurshid Davronning tarixiy badialarini tahlil qilar ekan, shunday deydi: "Insoniy komillik o'tmishni anglashdan boshlanadi. Chinakam ma'rifat egasi olis moziydan ozuqa oladi, istiqbol va istiqbol ne'mati ana shunday ziyoli maqomidagi qalb va shuur sohiblariga ko'proq bahra beradi-Xurshid Davronning tarixiy mavzudagi badialari mazmun-mohiyatini mazkur

haqiqatlar tashkil etadi. Jumladan, *“Massagetlar malikasi va forslar podshohi”*, *“Bosqinchilik qahramonlik bo’ladimi?”*, *“Amir Temur o’g’lining o’limi haqida rivoyat”* badiolari 80-yillar oxiridagi o’zbek tarixiy ma’rifatnomasida hodisaga aylandi”[4].

Maqolada Xurshid Davronning *“Samarqand xayoli”* deb nomlangan kitobidan o’rin olgan badiolar, xususan, *“Bibixonim qissasi yoki tugamagan doston”* asarida Xurshid Davron tarixning o’qilmagan sahifalarini yoritish bilan birga moziy voqealarini badiiy tahlil etganligi, tahlil natijasida muallifning ehtirolarga boy xotiralari esse darajasiga ko’tarilganligi ta’kidlanadi.

Ilmiy manbalarda publitsistik uslubga oid janrlar voqeyi-informatsion (xabar, reportaj, hisobot, korrespondensiya), analitik (maqola), badiiy-publitsistik (ocherk, feleton, pamflet) turlarga ajratib o’rganiladi. Filologiya fanlari doktori Shoira Ahmedova Xurshid Davronning adabiy-estetik qarashlarini o’zida jam etgan adabiy-tanqidiy, ilmiy, publitsistik ishlarini quyidagi uch guruhga bo’lib o’rganishni taklif qiladi:

1. Adabiy-tanqidiy maqolalar, suhbatlar.
2. Tarixiy-ma’rifiy badiolar.
3. Publitsistik lavhalar, maqolalar[16,10].

Adibning *“O’chmagan ovoz, so’nmagan qon”* nomli adabiy-tanqidiy mavzudagi maqolasini tahlil qilar ekanmiz, maqolada Oybek siymosiga cheksiz hurmat ruhi ufurib turganligini ta’kidlash lozim: *“Oybekning bizga ta’sirida hamisha ijodiy-ruhimizni ozod va pok qiluvchi, ma’naviyatimizni tartibga soluvchi zo’r qudrat bor. Oybek she’riyatida, Oybek shaxsiyatida, Oybek dahosining tabiatida hamisha haqiqiy san’atga xizmat qiluvchi mana shu buyuk ma’naviy qudratni ko’ramiz. Oybek she’riyati sirli, mo’jizalarga boy, tasviri g’oyat zalvor tug’yonlar jo g’alayondir, oy shu’lasiday yorug’ hislar bekingan qo’shiqdir”*[14].

“Ko’nglimizda yulduzlar chaqnasi” deb nomlangan suhbatda adib adabiyot haqida so’z yuritib, *“adabiyot ishlab chiqarish korxonasi emasligini, adabiyot majburiyatlar olmasligini”* ta’kidlaydi. Yaratilayotgan asarlarda xalqimizga bera olishi mumkin bo’lgan ma’naviy qudrat, salmog’ haqidagina gapirish shart, buning uchun haqiqatni aytish, xalqimizning yaratuvchilik qudratini uyg’otishimiz kerak deb hisoblaydi adib. Suhbat davomida ijodkor uzoq yillik tariximizga to’xtalib, Fayzulla Xo’jayev, Akmal Ikromov, Abdulla Qodiriy, Cho’lpon, Fitrat, Behbudiy kabi ma’rifatparvarlarning taqdirida ro’y bergan qora kechalar yoritilmayotganini jonkuyarlik bilan aytadi. O’sha suhbatdagi orzular bugungi kunga kelib amalga oshdi desak yanglishmaymiz. Suhbatni adib *“Eng avvalo o’g’illarimiz va qizlarimiz osmoni tinch va musaffo bo’lishini istayman. Ularning ko’ngil osmonida esa Navoiy, Ulug’bek, Bobur, Qodiriy, Oybek, To’maris va Muqanna yulduzlari charaqlab tursin”*, degan ezgu istak bilan tugatadi.

Tarix Xurshid Davron uchun bitmas-tuganmas xazina, hali ochilmagan qo’riq, aytilmagan qo’shiqdir. *“Tarix-bu quyoshga o’xshaydi. Unga peshvoz qarab yursang, peshonang yorug’, yo’ling porloq, ko’zlaring nurli bo’ladi. Unga orqa o’girsang, faqat soyangni ko’rasan, xolos”*, degan edi yozuvchi bir suhbatda. Yozuvchining tarixga bag’ishlangan maqolalari buning yorqin isbotidir. Adib *“Tunni yoritgan chaqmoq”*[15] nomli maqolasida Dukchi Eshon haqida fikr yuritadi. Maqolada *“Andijon qo’zg’oloni”* ga munosabat va Dukchi Eshon faoliyati haqida ma’lumotlar berilgan. Adib Dukchi Eshonning qo’zg’olondan keyingi taqdiri haqida olib borayotgan izlanishlarini ham maqolada keng yoritadi.

Ma’lumki, tarix mavzusi adabiyotimizda deyarli barcha ijodkorlarda ma’lum darajada o’z ifodasini topgan. Chunki tarix o’zidan keyingi avlodlar uchun ibrat maktabi bo’lib xizmat

qiladi. Xurshid Davronning tarix mavzusiga ko'proq murojaat qilgani, avvalo, ijodkorning badiiy maqsadi, qolaversa, unga ta'sir etgan tarixiy-ijtimoiy omillar bilan ham bog'liq deyish mumkin. Publitsist maqolalarida tarix mavzusi uni o'ylantirayotgan, qiynayotgan muammolarni badiiy idrok etish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

X.Davronning "Samarqand xayoli" kitobida Ibrohim G'afurovga bag'ishlangan "Tarix-bobolar bog'i" nomli maktub bo'lib, unda munaqqidning " O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida tarixchi olim Ne'matilla Ibrohimov nomiga yozgan maktubi bilan tanishganligini aytadi. Ijodkor munaqqidga murojaat qiladi: "Sizga qo'shilib mening ham so'ragim keladi: "Qachon tugaydi bu o'z tarixi, o'z xazinalariga loqaydlik?" Shunday deb aytishga sabablar borligi uchun ham bag'rimiz kuyadi, iztirob chekamiz. Tarixi ming yillar bilan o'lchagulik madaniy merosimiz o'rganilmayotgani haqida yozishga umrimizning qolgan qismi yetarmikin? Axir: "Ezgu ishning kechi yo'q", deb yurgan necha-necha bizga orqadosh avlodlar nes-nobud bo'ldi. Shu paytgacha siz sanab o'tgan Ibn Xurdobek, Ibn al-Fatih, Al-Muqaddasiy, Yoqut al-Hamaviy, Ibn Arabshoh, Al-Umariy, Klaviho, Marko Polo, Vamberi asarlaridek zarur bo'lgan Ota Malik Juvayniy, Ibn Asir, Rashiddin Fazlulloh Hamadoni, Minhojiddin Usmon Juzjoniy, Muiniddin Muhammad Isfizariy va boshqa juda ko'p tarixchilar bitgan asarlar hanuzgacha tarjima bo'lib, nashr etilmaganligini qanday izohlash mumkin ?"[14,14] Maktubda ham boshqa asarlarida bo'lgani kabi Xurshid Davronning tarixni asrash, ajdodlar merosiga kuyunchaklik bilan qarashi namoyon bo'ladi.

Yozuvchi publitsistikasi maktub (ochiq xat), maqola, esse (badia), adabiy suhbat kabi rang-barang janrlarda o'z ifodasini topadi. Bu janrlar guruhi voqelikni zamon va makon jihatidan keng qamrab olishi, atrofimizni o'rab turgan hayot muammolariga yanada chuqurroq kirib borishi, o'quvchiga hissiy ta'sir ko'rsatishi, badiiy usullari, obrazlilik jihatidan sof publitsistik janrlardan ajralib turadi. Yozuvchilarning adabiyot va san'atning rivojlanishi, maqsadi va rejaları haqidagi fikrlari doimo badiiy ijod orqali ifoda etiladi. Badiiy publitsistikada esa yozuvchining o'ziga xos individual uslubi, esseistik qarashlari aks etadi.

Xulosa. Publitsistik janrga oid matnlarni leksik jihatdan tahlil qilish, lingvistik xususiyatlarini taqqoslash bugungi kunning muhim masalalari sirasiga kiritilmoqda. Shuningdek, har bir ijodkorning so'z qo'llash mahoratini o'rganish, tasniflash, mohir publitsistlarning lekik fondini o'rganish orqali davr adabiy tilini tahlil qilish alohida ahamiyatga ega. Shu bois ushbu sohada o'z yechimini kutayotgan muammolar bir talay. Maqolamizda publitsistik uslub va uning tadqiqi, adabiyotining zabardast ijodkorlaridan biri Xurshid Davron ijodining lingvistik o'rganilishi, ijodkor publitsistik maqolalari, esse va suhbatlari misolida publitsistik uslubda mavzu rang-barangligining ahamiyati haqida to'xtaldik. Ijodkorning publitsistik uslubga xos maqola, suhbat hamda maktub janrida yaratilgan bir necha asarlarini tahlil qilish jarayonida shu narsa aniq bo'ldiki, har bir ijodkorning lekik fondini tahlil qilish orqali shu davr adabiy tilini chuqurroq o'rganish imkoniyati paydo bo'ladi. Ushbu maqolamizdan chiqargan kichik xulosalarimizdan biri shuki, Xurshid Davron publitsistikasida mavzular rang-barangligi va janrlar xilma xilligi bilan bir qatorda tarixiy mavzuga oid tarixiy-ma'rifiy va adabiy-tanqidiy maqola hamda badialar keng o'rin olgan. Yozuvchi maqolalarini lekik-semantik hamda lingvokulturologik aspektda tahlil qilishni keyingi tadqiqotimizda amalga oshiramiz. Chunki publitsistik asarlar tili lingvokulturologik va kognitiv jihatdan keng tadqiq etilmagan. Bir so'z bilan aytganda, bu sohada hali qilinishi lozim bo'lgan ishlar bir talay.

Адабиётлар/Литература/References:

1. D. Nusratilloeva. Xurshid Davronning individual uslubi va poetik mahorati. Filol. fan.. d-ri...diss.avtoreferati. Samarqand., 2022.
2. <http://kh-davron.uz/kutubxonasi>. 04.04.2024
3. <https://kh-davron.uz/ijod/adib/ege-universitetida-xurshid-davron-ijodi-boyicha-doktorlik-ilmiy-ishi.html>
4. <https://kh-davron.uz/ijod/adib/xurshid-dostmuhammad-togrilik-tonini-kiygil.html>
5. Курбанов Т. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка. Автореф.дис...канд.филол.наук.–Ташкент, 1987.–Б. 22.
6. М.М.Машарипов. Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasining lekik xususiyatlari. Filol. Fan. bo'yicha falsafa dokt. Diss. Guliston Davlat Universiteti– 2023.-B. 136
7. Мухаммадиев Р. Ўзбек публицистикаси. - Тошкент: Фан 1977.
8. Неъматова Донохон Саиджалоловна. Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили.–Тошкент: Турон замин зиё, 2016.–Б. 127.
9. O.Qurbonova. Shoir va munaqqid munosabatlariga oid mulohazalar.Xurshid Davron ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati. Ilmiy konferensiya materiallari.-Toshkent, 2022. 65-69 betlar.
10. Рахматова Д. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг лингвистик таълимоти, асарларинг тил ва услуб хусусиятлари: Филол. Фанлари буйича фалсафа доктори (PhD) дисс.– Самарканд, 2022.
11. Tilakova Maftuna Isroil qizi. Bosma ommaviy axborot vositalarida janrning o'rnini. Ilmiy tadqiqot va innovatsiya. 2023.–B. 102-106.
12. Тоғаев О. Ўзбек бадий публицистикаси. Фан, Тошкент,1973.-Б. 201.
13. Хамраева Хулкар Хамидуллаевна. Озод Шарофиддинов публицистикасининг тили ва услуби. Филол. Фан. Ном. Дисс.автореферати–Тошкент, 2012.
14. Хуршид Даврон. Самарқанд хаёли. Тошкент.1991. Б. 290 бет.
15. Хуршид Даврон. Тунни ёритган чақмоқ. <https://kh-davron.uz/kutubxonasi/uzbek/memuarlar/asqar-mahkam-dukchi-eshon> 2013.
16. Шоира Ахмедова. Хуршид Давроннинг адабий-эстетик қарашлари хусусида. “Хуршид Даврон ижодининг маънавий-маърифий аҳамияти” мавзусидаги 2022 йил 19 январь куни бўлиб ўтган республика илмий конференция материаллари. Т., 2022.-Б. 10-16.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/5 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).